



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

DIALOGIK NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILINING O'RNI

Xilola SUYUNOVA*

Annotatsiya

Maqolada dialogik nutqning ahamiyati va ona tilining bu jarayondagi roli haqida fikr yuritilgan. Dialogik nutqni rivojlanish konsepsiyasi kommunikativ metodga tayanadi. Bu usulni birlashtirilgan usullar guruhiga kiritish mumkin. Bu metod kommunikativ tilshunoslik g'oyalariga asoslanadi. Muloqot birligi nutq faoliyatidir. Chet tilini o'qitish jarayonida nutqiy harakatlardan foydalanish, bizning fikrimizcha, o'quv jarayonini kuchaytirish va motivatsiyaga yordam beradi. Ushbu o'qitish usuli psixologiya asoslarini ham o'z ichiga oladi, ular chet tillarini o'qitishga yondashuvni tanlashda, ya'ni shaxsga yo'naltirilganlikda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda bu usul dunyodagi eng samaralilaridan biri hisoblanishi xususida ifodalangan. Ona tilida sodir bo'ladigan dialogik nutq orqali insonlar o'zlarini ifodalash, boshqalar bilan aloqada bo'lish va madaniyatlarini saqlash imkoniyatiga ega bo'lishlari isbotlangan.

Davlat tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, milliy tilga ehtirom ruhida yosh avlodni tarbiyalash maqsad qilib olingan. Ona tilimiz orqali millat va xalq, adabiyot va tarix, ilm-fan va madaniyat rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Bugungi kun holatidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, til o'qitishda sotsiolingvistik tadqiqotlarning ahamiyati ortib bormoqda. Boisi shuki, tilshunoslikning tadqiq manbai til, til esa faqat insoniy jamiyatda muloqot vositasi sifatida yashagan va yashaydi. Muloqot vositasining bir qismi dialogik nutq — bu ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida sodir bo'ladigan muloqot jarayoni. U muayyan maqsadlar, fikrlar almashish va hissiyotlarni ifodalash uchun mo'ljallangan. Ona tili esa har bir insonning madaniyati, tarixi va identitetini belgilovchi muhim vositadir. Dialogik nutq boshqa ko'nikmalardan farqli ravishda ikki tomonlama muloqot vaziyatini talab qiladi, ya'ni og'zaki nutqning voqealanishi uchun, albatta, tinglovchi ishtiroki ham bo'lishi, o'qib tushunishi, audioma'lumotni tinglab tushunishi, yozma nutq ifoda etishi belgilanadi.

Kalit so'zlar: muloqot, madaniyat, kompetensiya, nutq, vosita, aloqa, til, kommunikatsiya, usul, talaffuz.

The Role of the Mother Tongue in Developing Dialogic Speech

Abstract

The article discusses the importance of dialogic speech and the role of the native language in this process. The concept of developing dialogic speech is based

* Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Navoiy davlat universiteti, hilolasuyunova0@gmail.com

on the communicative method. This method can be included in the group of combined methods. This method is based on the ideas of communicative linguistics. The unit of communication is speech activity. The use of speech acts in the process of teaching a foreign language, in our opinion, helps to strengthen the learning process and motivate. This teaching method also includes the foundations of psychology, which are reflected in the choice of approach to teaching foreign languages, that is, in the orientation towards the individual. Today, this method is considered one of the most effective in the world. It has been proven that through dialogical speech in the native language, people have the opportunity to express themselves, communicate with others, and preserve their culture. The goal is to radically increase the prestige of the state language in the social life of our people and at the international level, to educate the younger generation in the spirit of respect for the national language.

Through our native language, the nation and people, literature and history, science and culture are developing and progressing. Based on the current situation, the importance of sociolinguistic research in language teaching is increasing. This is because the source of linguistics is language, and language has existed and continues to exist only as a means of communication in human society. Part of the means of communication is dialogical speech - this is a process of communication that occurs between two or more people. It is designed to achieve specific goals, exchange ideas and express feelings. The native language is an important tool that determines the culture, history and identity of each person. Unlike other skills, dialogical speech requires a two-way communication situation, that is, for oral speech to occur, it is necessary to have the participation of a listener, to be able to read and understand, to listen and understand audio information, to express written speech.

Keywords: dialogue, culture, competence, speech, medium, connection, language, communication, method, pronunciation.

Xalqning, millatning o'zligini anglashida tilning o'rni va ahamiyati beqiyos.. Tilga e'tiborning kuchayganligini biz, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlariga muvofiq bir qator ishlar amalga oshirilayotganligidan ko'rishimiz mumkin. Yosh avlodni milliy tilga ehtirom ruhida tarbiyalash hamda ona tilimiz orqali millat va xalq, adabiyot va tarix, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish yuksak maqsadlardan sanaladi. Bugungi kun holatidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, til o'qitishda sotsiolingvistik tadqiqotlarning ahamiyati ortib bormoqda. Boisi shuki, tilshunoslikning tadqiq manbai til, til esa faqat insoniy jamiyatda muloqot vositasi sifatida yashagan va yashaydi. Muloqot vositasining bir qismi dialogik nutq — bu ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida sodir bo'ladigan muloqot jarayonidir. Ona tili esa har bir insonning madaniyati,

tarixini belgilovchi muhim vositadir. Dialogik nutq boshqa ko'nikmalardan farqli ravishda ikki tomonlama muloqot vaziyatini talab qiladi, ya'ni og'zaki nutqning voqealanishi uchun, albatta, tinglovchi ishtiroki ham bo'lishi, o'qib tushunishi, audioma'lumotni tinglab tushunishi, yozma nutq ifoda etishi mumkin, ammo og'zaki nutqni amalga oshirishda biror "sherik"ka muhtoj bo'ladi. Nutqning to'g'riligi quyidagilarga asoslanadi:

1. Til birikmalarini to'g'ri, ifodali talaffuz qilish, so'z va mantiqiy urg'u, ohang, pauzaga e'tibor berish.

2. Fikrni tushunarli, mazmunli ifodalovchi so'z, atama va birikmalarni to'g'ri tanlash va o'z o'rniga qo'llash.

3. So'zlarni variantlilik, ma'nodoshlik imkoniyatlaridan foydalanishda tinglovchining mafkurasi, dunyoqarashi, madaniy saviyasini hisobga olish.

4. Qo'shimchalarni to'g'ri ishlatish, morfologik shakllarning ko'p ma'noligini nazarga tutish, ularning ortiqchaligi, takroriylikiga yo'l qo'ymaslik.

5. So'zlarning o'zaro birikish qonuniyatlariga amal qilish, gaplarning Grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish.

6. So'zlarni imlo qoidalariga ko'ra to'g'ri yozish va boshqalar.

Dialogik nutq, asosan, quyidagi jihatlari bilan ahamiyatga ega:

Fikr almashish: dialogik muloqot orqali fikrlar va g'oyalar bir-biriga ta'sir qiladi, bu esa yangi bilimlar va tushunchalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Ijtimoiy aloqalar: muloqot ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi, insonlar o'rtasida empatiya va tushunishni rivojlantiradi.

Tilni rivojlantirish: dialogik nutq tilni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U tilning amaliy qo'llanilishi va yangilanishiga imkon beradi.

Ona tilining dialogik nutqdagi o'rni quyidagi jihatlar bilan ko'rsatiladi:

Madaniyatni saqlash: Ona tili orqali milliy madaniyat, urf-odatlar va an'analar avlodlarga o'tkaziladi. Bu jarayonda dialogik nutq muhim vosita hisoblanadi;

Identitetni belgilash: Ona tilida dialogik nutqni rivojlantirish, insonning o'zligini, madaniyatini va tarixini anglashiga yordam beradi. Bu esa shaxsiy va ijtimoiy identitetni shakllantiradi;

Tilning o'ziga xosligi: Har bir tilni shuningdek, ona tilida o'ziga xos dialogik nutq uslubi mavjud. Bu uslub tilning go'zalligini va rang-barangligini aks ettiradi. Shuningdek, ona tilining dialogik nutqdagi o'rni haqida quyidagicha talqin qilish mumkin.

1. Tarjima va tushuntirish — mavzuni tushuntirishda ona tilidan foydalanish: O'qituvchi yangi tushunchalarni yoki grammatik qoidalarni ona tilida tushuntirishi, talabalar uchun osonroq bo'ladi.

2. Misollar va mavzular — ona tilida berilgan misollar: O‘qituvchi ona tilida real hayotdan olingan misollar keltirib, talabalarni o‘rgatishi mumkin. Masalan, ona tilidagi hikoyalar yoki maqolalardan foydalanish.

3. Munozaralar — ona tilida muloqot: Talabalar ona tilida fikr almashishlari, munozara va diskussiyalar o‘tkazishlari orqali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

4. Rol o‘ynash va simulyatsiyalar — ona tilida rol o‘ynash: O‘qituvchi talabalarga ona tilida rol o‘ynash o‘yinlari orqali vaziyatlarni ifodalashni taklif qilishi mumkin, bu esa chet tilidagi nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

5. Madaniy kontekstni tushuntirish: O‘qituvchi ona tilidan foydalanib, chet tilidagi madaniyat va urf-odatlar haqida ma’lumot berishi, bu esa talabalar uchun yanada qiziqarli va tushunarli bo‘ladi.

6. O‘zaro muloqot — ona tilida savollar berish: O‘qituvchi ona tilida savollar berishi, talabalar esa o‘z fikrlarini ona tilida ifodalashlari orqali o‘zaro muloqotni rivojlantirishi mumkin. Dialogik nutqni rivojlanish konsepsiyasi kommunikativ metodga tayanadi. Bu usulni birlashtirilgan usullar guruhiga kiritish mumkin. Bu metod kommunikativ tilshunoslik g‘oyalariga asoslanadi. Muloqot birligi nutq faoliyatidir. Chet tilini o‘qitish jarayonida nutqiy harakatlardan foydalanish, bizning fikrimizcha, o‘quv jarayonini kuchaytirish va motivatsiyaga yordam beradi. Ushbu o‘qitish usuli psixologiya asoslarini ham o‘z ichiga oladi, ular chet tillarini o‘qitishga yondashuvni tanlashda, ya’ni shaxsga yo‘naltirilganlikda namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda bu usul dunyodagi eng samaralilaridan biri hisoblanadi. Ko‘pgina metodistlar, ham mahalliy, ham xorijiy, uni eng samarali deb hisoblashadi. Ushbu usul kommunikativ kompetentsiyani, ya’ni til muhitida samarali muloqotni amalga oshirish uchun ularni amaliy qo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma, ko‘nikma va tajribalar to‘plamini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu uslubning maqsadlaridan biri nafaqat chet tilida muloqot qiladigan odamlar uchun, balki tarjima faoliyatini amalga oshirish uchun ham zarur bo‘lgan madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantirish uchun chet tilidagi nutqni o‘rgatish va o‘zlashtirish hamdir. Shu o‘rinda bir nechta metodik usullarni tavsiya etamiz. Bular:

Raqamli platformalar — onlayn suhbatlar: (Turli forumlarda yoki ijtimoiy tarmoqlarda muhokama qilinadigan mavzularga yondashish);

Video konferensiyalar: (Zoom yoki Skype kabi platformalarda suhbatlar uyushtirish);

O‘yinlar — rolli o‘yinlar: (Har xil vaziyatlarda o‘zaro suhbatni simulyatsiya qilish). Misol uchun, “Fikrni davom ettir” o‘yinida har kim o‘z navbatida bir so‘z aytadi;

Kitoblar va filmlar — dialoglarni o‘qish: (Kitoblarda yoki filmlarda qiziqarli dialoglarni o‘qib, ularni takrorlash);

Amaliy mashqlar — suhbatni yozish: (Har kuni biror mavzuda o‘zaro suhbatni yozib olish). Tahlil qilish: O‘zaro suhbatlar va muloqotlarni tahlil qilib, kuchli va zaif tomonlarini belgilash.

Xulosa shuki, dialogik nutq va ona tili bir-birini to‘ldiruvchi vositalardir. Ularning o‘zaro aloqasi insonlarning fikrlarini, hissiyotlarini va madaniyatini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Ona tilida sodir bo‘ladigan dialogik nutq orqali insonlar o‘zlarini ifodalash, boshqalar bilan aloqada bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Jalolov, J. (2012). *Chet tilini o‘qitish metodikasi*: Nazariya va amaliyot. O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. Toshkent.

Lyster, R. (2007). *Learning and Teaching Languages through Content: A Counterbalanced Approach*. John Benjamins Publishing.

Nazarova S. (1992). *O‘zbek tili o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi.